

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNI DARS MASHG'ULOTLARIDA
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING QO'LLANILISHI
VA ULARNING TA'LIM FAOLIYATIDAGI SAMARADORLIGI**

*Kokand Universiteti Andijon filiali
Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi
1-bosqich talabasi
Ruziboyeva Dilnavoz Olimjon qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarni dars mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi va ularning ta'lim faoliyatidagi samaradorligi mavzusiga bog'langan bo'lib, bunda ta'lim jarayonini interfaol, innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada yaxshilash mumkinligi yoritilib berilgan.

Аннотация: Данная статья связана с темой использования современных педагогических технологий на уроках учащихся младших классов и их эффективности в учебной деятельности, а также подчеркивается, что организация учебного процесса с использованием интерактивных, инновационных и информационно-коммуникативных технологий позволяет повысить интерес учащихся к учебе, развить их логическое мышление, существенно повысить уровень их мастерства.

Annotation: This article is related to the use of modern pedagogical technologies in primary school classes and their effectiveness in educational activities. It highlights the fact that organizing the educational process using interactive, innovative and information and communication technologies can increase students' interest in learning, develop logical thinking, and significantly improve their level of mastery.

Kalit so'zlar : mashg'ulotlar, zamonaviy pedagogiklar, interfaol ta'lism, innovatsion metodlar, axborot – kommunikatsiya texnologiyalar, o'yin texnologiyalar , mantiqiy fikrlash .

Ключевые слова: обучение, современная педагогика, интерактивное образование, инновационные методы, информационно-коммуникационные технологии, игровые технологии, логическое мышление.

Keywords: training, modern pedagogy, interactive education, innovative methods, information and communication technologies, game technologies, logical thinking.

Zamonaviy ta'limgarayonida an'anaviy usullar bilan cheklanib qolish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini pasaytirishi va o'zlashtirish darajasini susaytirishi mumkin. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun ta'limgarayoni qiziqarli, interfaol va innovatsion bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'limgarayonini oshirishning asosiy vositalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda ta'limgarayonining oldida turgan eng muhim vazifardan biri – o'quvchilarga mustahkam bilim berish bilan birga, ulardan mustaqil va mantiqiy fikrlash hamda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish talab qilinadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'limgarayonidagi o'rni. Interfaol ta'limgarayonida bu o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan o'qitish tizimi bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchilarni faollashtirish, ularni mustaqil izlanishga undashdir.

Qo'llaniladigan metodlar:

“Aqliy hujum” – o'quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantirish, turli g'oyalarni ilgari surish ;

“Venn diagrammasi” – mavzularni taqqoslash va umumiyligini xususiyatlarni ajratib olish;

“Insert” – matn bilan ishslash orqali bilimlarni tahlil qilish va o'z fikrlarini bayon etish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyardan foydalanish va ularning afzallikkleri

Bugungi kunda AKT dan foydalanish boshlang'ich sinf darslarni yanada qiziqarli va samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv doskalar, elektron darsliklar, onlayn ta'limgarayonida platformalari va multimediali taqdimotlardan foydalanish orqali darslar yanada tushunarli bo'ladi. AKT ning afzallikkleri shundan iboratki, o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'quv materiallarini vizual tarzda tushuntirish imkoniyatlarini yaratadi. Mustaqil o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta'limgarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligidagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'limgarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytdagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari tashkiliy ishlarni shaklida ta'limgarayonida va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'limgarayonida maqsadlar asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savotxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsadlar asosida esa ma'nnaviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish

jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkonи paydo bo'ladi. Ulug' donishmandlardan biri "...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit", degan ekan.

Barchamizga ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyatda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qator boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, "BBB", "Baxs-munozara", "Rolli o'yin", "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda. Metodlardan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin. Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniya, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slaydlar, video va audio magnitafonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinni va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1. O'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavhalar namoyish etishadi;
2. O'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
3. Jarayonning mohiyatini daftarlariiga qayd etishadi;
4. O'qituvchilar tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr - mulohazalarini bildiradi. XXI asr insoniyat tarixiga "Axborot asri" sifatida kirib keldi. Axborot oqimining keskin ko'payishi kishilarning telefonga bo'lgan ishtiyoqini tobora ortirdi. Bu esa yoshlarni kitobga bo'lgan qiziqishini so'ndirdi. Ammo bolalar maktabga borsa, ustozlaridan motivatsiya olib yana kitobga muhabbat qo'ydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolalarga to'g'ri yo'l ko'rsatdi. Va ularga

mobilaloqalardan foydalanishning foydali tomonlari borligini ham tushuntirdi. Pedagogik ustozlar bolalarni darsga qiziqtirish uchun har xil metodlarni targ'ib qilishyapti. "Metod " so'zi (yunoncha "metohodos "-yo'l) maqsadga eltuvchi yo'lni ifodalaydi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida shaxsni ta'limi, tarbiyasi, rivojlanishi vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan, o'zaro aloqador faoliyat yo'lidir, deb ta'rif beradi. (V.A . Slastyonin) "Ta'lim metodi – bu yo'l, u yordamida o'qituvchi o'quvchilarini bilim o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi " deb ta'kidlaydi. (P.N.SHimbireva)

O'qitish usullarini quyidagilarga bo'linadi:

1. Tafakkur, xotira, diqqat va hayolning alohida operatsiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;
2. Fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan usullar;
3. O'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;
4. Nazorat va o'quvchilarning o'zini -o'zi nazorat qilish usullari;
5. O'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

STEAM - ta'limida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rejorashtirishga katta e'tibor berilishi natijasida ularning hamkorlikda ishlashi va ijodiy qobiliyati rivojlanadi, irodasi mustahkamlanadi. Aynan shunday bilim va ko'nikmalar o'qitishning asosiy vazifasi bo'lib, butun o'qitish tizimi shunga intiladi. AQSH, Singapur, Koreya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Isroil kabi ko'pkina mamlakatlarda STEAM -ta'limi sohasida davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ta'rif berilgan boshlang'ich ta'lim pedagogilari uchun barcha ma'lumotlar kerakli va foydali . Chunki bolani qanday o'qitish va qanday dars kayfiyatiga olib kirish 1-sinf o'qituvchisi qo'lida bo'ladi . O'qituvchi bolalarni darsga har xil multivideo, slaydlar va boshqa qiziqarli o'yinlar orqali tushuntirsa bola qiziqib o'qiy boshlaydi va o'yagan maqsadiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) I.Azimov " Zamonaviy pedagogik texnologiyalar " Fan , Toshkent - 2021
- 2) J.Yo'ldashev " Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar " Toshkent-2020
- 3) X.Soliyev "interaktiv usullar orqali ta'lim berish " Toshkent -2022
- 4) G.Siddiqova "AKT va multimedia vositalari orqali ta'lim jarayonini rivojlantirish " Ilmiy jurnal ,2021
- 5) CHatGPT – Open AI suniy intellekt platformasi orqali ma'lumotlar taxlili va taxriri 2025
- 6) G.Raxmonova "Umumiy pedagogika " O'quv qo'llanma , Buxoro-2022